



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF–79-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida buyuraman:

1. Quyidagilar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2023-yil 27-iyuldagi 2-sonli majlis bayonida tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi yuzasidan tegishli qaror qabul qilinganligi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yo‘lga qo‘yilgan o‘quvchilarning bilimni formativ va summativ baholash tizimi ijobiy joriy etilganligi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 192-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablari ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — tajriba-sinov maktablari), shuningdek, bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish istagini bildirgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-11-sinflarida formativ va summativ baholash tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etilsin.

3. Yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablarida yangi baholash jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha vaqtinchalik tartib ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov)ga tajriba-sinov ishlari tashkil etilishiga rahbarlik qilish hamda muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklansin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev):

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tajribasidan kelib chiqib, tajriba-sinov davrida uzluksiz metodik yordam ko'rsatish choralarini ko'rsin; bir oy muddatda tajriba-sinov jarayonlarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limiga taqdim etsin.

6. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova):

o'rnatilgan tartibda milliy va xorijiy malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tajriba-sinov maktablari uchun test topshiriqlari formati, vaqt me'yorlari, baholash mezonlari va test sinov materiallarini ishlab chiqsin;

bir oy muddatda tajriba-sinov jarayonlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash yuzasidan mablag' talabnomasini Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limiga taqdim etsin.

7. Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limi (I.Xoliqulov) tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini amalga oshirish xarajatlarini taqdim etilgan talabnomalarga asosan o'z vaqtida moliyalashtirilishi ta'minlasin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

bir hafta muddatda bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish istagini bildirgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari ro'yxatini vazirlikka taqdim etish;

belgilangan maktablarda tajriba-sinov jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakuni bo'yicha tajriba-sinov xulosalarini vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar bilimni baholashning yangi tartibi tajriba-sinovdan o'tkazilganligini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

10. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil 16-avgust,  
248-son